

## **Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun tarbiya fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv me’oriy hujjatlarga muvofiq qo‘srimcha, o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

### **1. Test topshiriqlarining qo‘llanishi**

Spetsifikatsiya Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni tarbiya fanidan oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o‘tkazish uchun o‘qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

### **2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me’oriy hujjatlar:**

– Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini va qo‘llanmalarini va oliy ta’lim muassasalarini tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rtta ta’lim uchun Tarbiya fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘ridsida” 2022-yil 2-avgustdaggi VM-425-son qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

### **3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi.**

Tarbiya fanidan test topshiriqlari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun tarbiya fani bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo‘naltiriladi. Ular o‘qituvchilarda tarbiya fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirganlik darajasini sinovdan o‘tkazadi.

### **4. Test topshiriqlari tuzilishi.**

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo‘lishi mumkin:

Y1 – to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test;

Y2 – to‘rttadan ko‘p javob variantli, bir nechta to‘g‘ri javobli yopiq test;

Y3 – to‘rtta savolga to‘rtta to‘g‘ri javobni mos qo‘yadigan yopiq test;

Y4 – har biri “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb belgilanadigan to‘rtta savoldan

iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Tarbiya fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

<b>Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi</b>	<b>Topshiriqlar soni</b>	<b>Topshiriqlar ulushi (%)</b>
Oson	10	25
O‘rta	20	50
Yuqori	10	25
<b>Jami:</b>	<b>40</b>	<b>100</b>

Tarbiya fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o‘rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

#### **Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta’milanadi:**

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta’milanadi;

- turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo‘sishimcha ma’lumotlar, tarbiya faniga oid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, lug‘atlar, kodekslardan namunalar va rasmlardagi ma’lumotlardan foydalaniлади.

#### **5. Test topshiriqlarining mazmun, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha taqsimlanishi.**

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimotida aks etgan bo‘limlarga oid mazmunni hamda 11 ta paragraf, 11 ta punktni o‘z ichiga oladi.

#### **Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimoti:**

##### **Tarbiya**

<b>Paragraf</b>	<b>Punkt</b>	<b>Mavzu</b>	<b>Qiyinlik darajasi</b>		
			<b>oson</b>	<b>o‘rta</b>	<b>yuqori</b>
<b>Insonning ma’naviy va axloqiy qadriyatlari</b>					
1	1	Milliy va ma’naviy tarbiyaning nazariy asoslari. “Tarbiya”			

		<p>tushunchasining mazmun va mohiyati. Axloqiy tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy usullari. Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari farzand kamolotida tutgan o'rni. Diniy-falsafiy manbalar va ajdodlarimiz merosi – ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning tarixiy ildizlari sifatida ekanligini. O'zbek xalq og'zaki ijodida tarbiya masalasi ustuvorligi.</p> <p>Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqalar) merosida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya mavzusining yoritilishi. Jadidchilik ma'rifatparvarlik harakati namoyondalari (Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat va hk.) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.</p> <p>Insoniyatning ma'naviy merosi. Insonni xotirlash – milliy qadriyat. Milliy an'ana va qadriyatlar. Mehmondo'stlik – milliy qadriyat. Etiket. Adolat – hayot haqiqati.</p>		
--	--	--	--	--

### Fuqarolik hissi

2	1	<p>Fuqarolik jamiyat. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik asoslari. Fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalashga doir tushunchalar. Fuqarolik jamiyat taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Vatanparvarlik. Insonning huquq va majburiyatlar. Faol fuqarolik. Fuqarolik tarbiyasi. Huquqiy tarbiya. Faol o'quvchidan faol fuqarolikkacha. O'smirlarda fuqorolik ma'suliyatini tarbiyalashda oila, mahalla, o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorlik ko'rinishlari. Oil – baxt qo'rg'oni. Axloqiy tarbiya. Daxldorlik. Oiladagi burch va mas'uliyat. Har bir farzand vatan himoyachisi.</p>		
---	---	--	--	--

### Yashashdan maqsad - munosib hayot

3	1	<p>Vatan – inson uchun eng qadrli va eng suyukli dargoh. Vatanga muhabbat – eng muqaddas tuyg'u. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarbligi. Yashamoq – o'zidan yaxshi nom qoldirmoq. Kelajakka sarmoya - vaqt ni mazmunli o'tkazish. Baxtiyorlik – umrning bosh maqsadi. Hayot betakror ne'mat. Go'zal tarbiya tamoyillari. Eng oliv chorlovdir – munosib hayot. Hayotning maqsadi. Erkin va farovonlik hayot mazmuni. Halollik vaksinasi. Kelajakka sarmoya – vaqt ni mazminli o'tkazish. Kommunikativlik – muvaffaqiyat kaliti. Baxtli yashash sirlari.</p>		
---	---	---	--	--

### O'z – o'zini anglash

4	1	<p>O'z-o'zini anglash – baxt va muvaffaqiyatning asosi. Vatan taraqqiyoti o'zingni anglashdan boshlanadi. O'ziga ishonch – mo'jizakor kuch. Burchga sodiqlik o'z- o'zini anglashning asosiy sharti. Yuklaslish o'zingni anglashdan boshlanadi. Katta o'zgarishlar qiluvchi kichik odatlari. Kasb tanlash sirlari. Fe'l-atvorda irodaning o'rni. Iroda. Halollik muvaffaqiyat kaliti. Hayot betakror ne'mat. Hayotda o'z istaklarimizni anglash.</p>		
---	---	---	--	--

		Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish. Inson huquq va majburiyatları. Inson ezgulik ijodkori. Tanqidiy fikrlashning mazmuni va mohiyati. Tanqidiy fikrlash asoslari. Tanqidiy fikrlash elementlari. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va ularning ahamiyati. Tanqidiy fikrlashda “Blum taksonomiya” sidan foydalanish. Tanqidiy fikrlashda “Pinbord” usulidan foydalanish. Kreativlik – ijodkorlik, ijodiy yondashuv.		
--	--	---	--	--

### **Inson va jamiyat**

5	1	Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat. Ma-halla – qadriyatlar beshigi. Jamiyatning ma’naviy asoslari. Din va madaniyat. Oila va kichik Vatan. Ayol baxti jamiyatning baxtidir. Dunyo dinlarida insonparvarlik g‘oyalari. Inson huquq va majburiyatları. Jamiyat rivojida shaxslarning roli. Shaxs va millat ma’naviy takomilida tarbiyaning o‘rni. Tarbiya maqsadi. Tarbiya metodlari. Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Ja-miyatda insonning o‘ziga xos xususiyatlari. Madaniyatning in-son va jamiyat hayotidagi o‘rni. Muomala madaniyati. Jamiyat hayotining asosisy sohalari. Inson kapitali. Korrupsiya – inson va jamiyat hayotiga xavf soluvchi illat.		
---	---	---	--	--

### **Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar**

6	1	Ishonchli va qalbaki axborotlar. Internetdan va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati. Axborot madaniyati. Axborot tahdidlari. Internetning inson ongiga ta’siri. Ishonchli va ishonchsiz axborotlar. Axborot xavfsizligi muammolari. Virtual olam va ma’naviy tarbiya muammolari. Elektron ishtirok. Buzg‘unchi g‘oyalari. Ogohlik. Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar. Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish. Xavfsiz media ummoni. Kibermakonda axborot iste’moli madaniyati.		
---	---	--	--	--

### **Ilm – ma’rifat. Innovatsiya**

7	1	O‘zbekiston–ma’rifatparvar allomalar zamini. Al-Xorazmiy – jahon ilm-fanida burilish yasagan olim. Zamonaviy fan - texnika taraqqiyoti va uning mazmun - mohiyati. Uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari meroslarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning ahamiyati va roli. Buyuklarni aziz qilgan bilim. Bilimga asoslangan jamiyat. Tarbiya texnologiyasi. Innovatsiya va ilg‘or fikrlash. O‘qituvchi shaxsiy xususiyatlari .Innovatsiya – yangilikka intilish, tanqidiy fikrlash asosidir. Tasavvur – kelakakka yetaklovchi vosita. Tafakkur – innovatsiyalar kaliti. Liderlikka xos xususiyatlar.		
---	---	--	--	--

### **Tadbirkorlik asoslari**

8	1	Tadbirkorlik va tadbirkorlik ma’naviyati. Fuqarolik va tadbirkorlik. Tadbirkorlik mezonlari. Iqtisodiy tarbiya. Pul topishning zamonaviy va sodda yo’llari. Frilanserlik – qo‘sishcha daromad manbayi. Iqtisodiy savodxonlik va iqtisodiy madani-		
---	---	---	--	--

		yatlilik darajasi. Tejamkorlik. Ijodkorlik – tadbirkorlik va taraqqiyoot g‘ildiragi. Mehnatdan qadr topgan ayollar. Boylikdan foydalanish mezonlari. Iste’mol va tadbirkorlik madaniyati. Biznes mezonlari. Biznes huquqi. Biznesni boshlash uchun zamonaviy g‘oyalari. Mehnat tarbiyasi. Kasb tanlash sirlari. Taraqqiyot va biznes – ilm-fan va yaratuvchanlik mevasi.		
--	--	--	--	--

### **Ekologik tarbiya**

9	1	Ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Tabiatga munosabat madaniyati. Ekologiya. Atrof-tabiat, inson va tabiat munosabatlarining axloqiy munosabatlari. Tabiatga ekologik munosabat. Ekologik huquqbuzarlik. Ekologik talablarni mensimaslik. Ekologik muammolarni yechishdagi muhim qadamlar. Tabiat va inson. Ekologik madaniyat. Tabiatni asrash – hayotni asrash. Ekologik xavflar kelajak zavoli. Ekologik barqarorlikni rivojlantirish. Ekologiya va salomatlik. Ekoturizmni rivojlantirish. Ta’lim – ekologik madaniyatni shakllantirish omili. Global muammolar va umuminsoniy qadriyatlar. Ekologik monitoringni tashkil tashkil qilish. O‘zbekistonda ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta’minlash.		
---	---	--	--	--

### **Tinch va xotirjam yashash baxti**

10	1	Tinchlik - farovonlikning muhim omili. Hushyorlik va ogohlik davr talabi. Bag‘rikenglik - tinchlik va totuvlik sari muhim qadam. Millatlararo hamjihatlik. Yaxshilik yo‘lida hamkorlik. Har bir farzand Vatan himoyachisi. Jamiyatga xavf soladigan illatlar. Insoniylik xalqimizning eng buyuk fazilati. Xotira – abadiy, qadr – muqaddas. Vatan oldidagi burch. Xalqimizga xos bo‘lgan do‘stlik, birodarlik fazilatlari. Tinchlik va xotirjamlik - taraqqiyot garovi.		
----	---	---	--	--

### **Tarbiya fanining huquqiy asoslari**

11	1	“Tarbiya” fani bo‘yicha umumiyoq o‘rtalim muassasalar o‘qituvchilariga qoyiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiyoq o‘rtalim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma - bosqich amaliyatga joriy etish to‘g‘risidagi 422- sonli qarori. Miliy va zamonaviy tarbiya nazariyalari hamda tarbiya konsepsiylari. “Yangi O‘zbekiston–yangicha dunyoqarash” tamoyilining tarbiyaviy jihatlari. “Tarbiya” fani DTS. Ta’lim jarayoni tuzilishi. O‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi.		
----	---	---	--	--

**Jami**

**10 20 10**

### **6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):**

- 40 ta test topshirig‘i uchun 80 daqiqa.

## **7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” 1059-son qarori
4. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari) . O‘quv qo‘llanma. II kitob. T.: 2013
5. Sh. Sattorov, D. Ro‘ziyeva, Z. Islomov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Sher-muxamedova, Z. Zamonov, O. Mahmudov, D. Rahimjonov, N. Xolmu-hamedova, S. Madaliyeva, L. Mo‘minova, S. Zokirova. Tarbiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020.
6. N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Mahmudov, D. Ro‘ziyeva, S. Shermuhamedova, S. Akkulova, N. Xolmuhammedova, Z. Jabborova. Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
7. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
8. A.V. Narbekov. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2008.
9. D.Yormatova. Ekologiya. O‘zbekisgon Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2009.
10. A.Sher . Axloqshunoslik. Darslik – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy ja-miyati.. 2010.
11. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Mualliflar jamoasi. – T.: “Sharq”, 2009.
12. F.R. Madraximova. Mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari / (monografiya). – T.: Ilm-zifo zakovat, 2022.
13. Muomala madaniyati. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. O‘zbekiston Milliy universiteti. - T.: «Ta’lim nashriyoti», «Iqtisod-moliya», 2009.
14. L.A. Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, G.K.Masharipova, Sh.S., Agzamxodjayeva. Professional etika va etiket. Darslik. Toshkent. 2017.

*\*Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.*